

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/03.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

KENJAYEVA MUAZZAM ISROILJON QIZI

**ARRALI JIN ISHCHI KAMERASIGA TEZLATGICH O‘RNATISH
HISOBIGA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2024 yil

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Kenjayeva Muazzam Isroiljon qizi

Arrali jin ishchi kamerasiga tezlatgich o‘rnatish hisobiga uning samaradorligini oshirish.....3

Кенжаева Муаззам Исроилжон қизи

Повышение эффективности пильного джина за счет установки ускорителя в его рабочей камере.....23

Kenjayeva Muazzam

Increasing the efficiency of the saw gin by installing an accelerator in its roll box.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works48

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/03.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

KENJAYEVA MUAZZAM ISROILJON QIZI

**ARRALI JIN ISHCHI KAMERASIGA TEZLATGICH O‘RNATISH
HISOBIGA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2024 yil

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T1840 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan to'qimachilik sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan to'qimachilik sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ntsi.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarov Akmal Akparaliyevich
PhD, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Jamshid Qambaraliyevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Sattorov Nurillo Muzaffar o'g'li
PhD, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoat instituti huzuridagi PHD.03/03.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "24" avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, janubiy aylanma yo'li ko'chasi 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04, (998)55-255-43-04. e-mail: info @ntsi.uz, Namangan to'qimachilik sanoat instituti 1-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan to'qimachilik sanoat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan shahar, janubiy aylanma yo'li ko'chasi 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "13" avgust kuni tarqatildi.
(2024 yil "12" apreldagi 13-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

J.Q.Yo'ldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasidan tayyorlangan kiyim-kechaklarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda va bu holatda jahon bozorida paxta tolasiga bo‘lgan talab va uning iste‘moli ortishi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda dunyoning, asosan, 38 mamlakati umumiy paxta miqdorining 95 foizini yetishtirib beradi¹. Paxta tolasini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblangan AQSH, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Braziliya kabi mamlakatlar tola ishlab chiqaruvchilari tola bozoridagi o‘z o‘rni va nufuzini saqlash uchun ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini iste‘mol xususiyatlarini oshirish va ularning bozor konyunkturasiga mosligini ta‘minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada, jumladan paxta chigitidan tolasini ajratish texnika va texnologiyasini rivojlantirish asosida paxta tolasini va chigitining boshlang‘ich sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini saqlab qolishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasi, xususan, paxta tolasini chigitdan ajratish (jinlash) jarayoni, texnika va texnologiyasini rivojlantirish, jumladan, paxtani jinlash jarayoni samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish, ilmiy hajmdor, avtomatlashgan, shuningdek, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, fan-texnikaning eng oxirgi yutuqlarini sanoatga keng joriy etish orqali paxta mahsulotlari sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan paxta tolasini chigitdan ajratish jarayonida tola va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash va mahsulot sifatini boshqarish imkonini beradigan ixcham texnologiyalar hamda uskunalarning sodda, kam material va energiya sarflaydigan konstruksiyalarini yaratish masalalari dunyo paxta sanoatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, paxta tozalash sanoatini modernizatsiya qilish asosida iste‘mol bozoriga chiqarilayotgan paxta mahsulotlari sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ularning raqobatbardoshligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, mamlakat to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da, jumladan «...milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash hamda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga

¹ <https://www.tendata.com/blogs/export/4712.html>

ko'paytirish» bo'yicha vazifalar belgilangan.² Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, soha korxonalarida paxta tolasini chigitdan ajratish uskunalarining ishchi organlarini takomillashtirish orqali tola ajratish jarayoni samaradorligini oshirish masalasi muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-sonli Farmoni, «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3408 son qarorlari, Vazirlar mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 253-sonli «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta tolasini chigitdan ajratish jarayonining sanoat darajasida shakllanishiga Amerikalik injener Eli Uitney tomonidan 1793 yil yaratilgan birinchi jin mashinasi turtki bo'lgan. Hozirgi kungacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlarida jarayonning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi, u butun boshli texnologik zanjir sifatida shakllandi va rivojlandi. Bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan Aslam S., Soomro N., Alberson D.V., Armijo S.V., Hugs S.E. va boshqalar. Arrali jin mashinasini takomillashtirishga O'zbekistonlik taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan Boldinskiy I.G., Miroshnichenko G.I., Tyutin, Tillyaev M., Bekmirzaev B.I., Usmanov X.S., Safarov N.K., Kotov D.A., Muradov R.M., Kord I.D., Axmedxodjaev X.T., Davidbaev X.K., Ergashev J.S., Yunusov S.Z., Yunusov R.F., Agzamov M., Safarov N.M. olib borgan ilmiy tadqiqotlar natijasida nafaqat paxta tolasini chigitdan ajratish jarayoni, balki, paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasining taraqqiyotiga ham salmoqli natijalarga erishdilar.

Shu bilan birga, dissertatsiya mavzusi doirasida hozirgacha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari paxta tolasini chigitdan ajratish jarayoni va uskunalarini takomillashtirishning ayrim masalalari, xususan, arrali jinlarda tola ajratish jarayonini takomillashtirish, tezlatgichning ratsional shakli va parametrlari, optimal diametri va tezligini aniqlash kabi yo'nalishlarga qaratilgan bo'lib, ular natijasida paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasi muayyan darajada rivojlangan, olinayotgan mahsulot sifat va miqdor ko'rsatkichlari yaxshilangan. Ammo, arrali jin mashinasida zaruratga ko'ra, shu jumladan, xomashyo valigi zichligi o'zgarishidan tezlatgich elektromotori yuklanish tokiga mos ravishda ta'minlovchi valiklar tezligini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

boshqarishning resurstejamkor va paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlash imkoniyatini beradigan texnologiyasini yaratish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №IOT-2016-2-9 «Jin mashinasida xomashyo valigi zichligini rostlovchi va elektr energiya tejoyvchi moslamalarni ishlab chiqarishga joriy etish» (2016-2017) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tola ajratish mashinasining ishchi kameradagi xomashyo valigi zichligini tezlatgichning elektromotori yuklanish toki orqali ta'minlovchi valiklar tezligini avtomatik rostlash hisobiga uning samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinchash mashinalari ishchi kameradagi xomashyo valigi zichligini avtomatik rostlash bo'yicha mavjud tadqiqotlarning tahlili asosida texnologik jarayonlarni boshqarishning yangi qurilmalari va tizimlaridan foydalanib, xomashyo valigi zichligini tezlatgich elektromotori yuklanish toki orqali ta'minlovchi valiklar aylanish tezligini rostlash jarayonini takomillashtirishning ratsional yo'nalishini tanlash;

ishchi kameradagi tezlatgich aylanish tezligi va diametrining o'zgarishini mashina ish unumdorligiga, tola va chigitning shikastlanishiga ta'sirini nazariy tadqiq qilish, tezlatgich tezligi va diametriga mashinaning ish unumdorligi, tola va chigitning sifat ko'rsatkichlari bog'lanishini aniqlash;

texnologik mashinalarda xomashyo valigi zichligini rostlashning mavjud tizimlarining tahlili asosida jinchash mashinalari tezlatgich elektromotori yuklanish toki orqali xomashyo valigi zichligini rostlashning resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish, jin xomashyo valigi zichligini nazorat qilish va boshqarish vositalarini yaratish;

paxta tolasini chigitdan ajratuvchi mashinalarning ishchi kameradagi xomashyo valigi zichligini tezlatgich elektromotori yuklanish toki orqali rostlash tizimlarini ishlab chiqarish sinovlaridan o'tkazish va amaliyotga joriy etishga tavsiya qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida paxta xomashyosi, arrali jinchash jarayoni, jin mashinasi ishchi kameradagi tezlatgich parametrlari va xomashyo valigi zichligini rostlash uskunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini paxta tolasini chigitdan ajratish va uni tadqiq qilish metodlari va vositalari, paxta, tola va chigitning jarayondagi harakat qonunlari, yaratilgan konstruksiyalarning ish rejimlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, oliy matematika, amaliy jarayonlarni statik va dinamik modellashtirish, to'liq faktorli eksperimentlar, kuzatish, o'lchash, solishtirish, baholash va maqsadli elektron dasturlar vositasida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tola va chigitning sifat ko'rsatkichlari va uskuna ish unumi xomashyo valigining tezligiga bog'liqligini hisobga olgan holda ishchi kameradagi tezlatgich tezligini boshqarish mexatronik tizimi ishlab chiqilgan;

arrali jin ishchi kameradagi tezlatgich va paxta bo'lakchasi harakati qonuniyatlari tahlili asosida paxtani arrali jinlash jarayonining dinamik parametrlari – tezlatgich aylanish chastotasi va diametri aniqlangan;

mashinaning ish unumdorligi, tola va chigitning sifat ko'rsatkichlarining jinlash jarayoni parametrlari bilan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib xomashyo valigi zichligining tezlatgich elektromotori yuklanish toki o'zgarishiga ko'ra valiklar tezligini rostdash usuli ishlab chiqilgan;

tezlatgich aylanish tezligi va diametri hamda uskuna ish unumi, tola va chigitning sifat ko'rsatkichlarining o'zaro bog'lanish qonuniyati tahlili asosida xomashyo valigi zichligini tezlatgich elektromotori yuklanish toki orqali avtomatik rostdash mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arrali jin mashinasida jinlash jarayonini tahlil qilish imkonini beruvchi mashinaning unumdorligi, tola va chigitning sifat ko'rsatkichlarining tezlatgich diametri va tezlatgich tezligiga bog'lanish tenglamasi ishlab chiqilgan;

tolani chigitdan ajratish jarayonlari matematik modellari tahlili asosida paxta va uning mahsulotlari tabiiy xususiyatlari saqlanishini ta'minlovchi, xomashyo valigi zichligini rostdash uchun ta'minlovchi valiklar tezligi o'zgarishini ta'minlash, avtomatik nazorat qilish va boshqarish tizimi hamda vositalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi arrali jinlash jarayoni nazariy tadqiqotlari va olingan natijalarining mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot yakunida natijalarining ilmiy ahamiyati yaratilgan matematik modellar va empirik tenglamalarning paxta tozalash, xususan, jinlash jarayoni nazariy asoslarini muayyan darajada rivojlantirishga xizmat qilishi hamda ularning paxta mahsulotlari tabiiy xususiyatlari saqlanishini ta'minlovchi, xomashyo valigi zichligini rostdash jarayonini avtomatik nazorat qilish va boshqarish tizimi va vositalari yaratilishiga asos bo'lgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning paxta tozalash sanoati ehtiyoji asosida amalga oshirilgani, natijada paxta tozalash korxonalarini uchun yuqori iqtisodiy samara beradigan xomashyo valigi zichligi rostdanadigan arrali jinlashning resurstejamkor texnologiyasi va uskunalari ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xomashyo valigi zichligi tezlatgich elektromotori yuklanish toki orqali rostdanadigan arrali jinlashning resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Ishchi kamerasiga o'rnatilgan tezlatgich orqali xomashyo valigi zichligi rostanadigan arrali jin «Namangan To'qimachi Cluster» MChJ ga qarashli «Chust paxta tozalash» korxonasi ishlab chiqarishga joriy etilgan («O'zbekiston Paxta-To'qimachilik Klasterlari» uyushmasining 2023 yil 19 apreldagi №02-22-296-son ma'lumotnomasi). Natijada, Namangan-77 seleksion navida I-nav 1-sinf paxtani ishlashda paxta tolasidagi nuqson va iflos aralashmalar yig'indisini 0,9% ga kamaytirish, chigitning mexanik shikastlanishini 0,8% ga kamaytirish, mashinaning ish unumdorligini 10 % ga oshirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha 21 ilmiy ish chop qilingan, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, shu jumladan 4 ta maqola respublika va 4 ta maqola chet el jurnallarida nashr etilgan, hamda O'zbekiston Respublikasi Intellektual Mulk Agentligining 1 ta foydali modelga patenti va 1 ta EHM dasturi uchun guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Arrali jin ishchi kamerasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan arrali jin konstruktsiyalari tahlil qilingan. Arrali jin mashinalarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ilmiy-texnik izlanishlar bilan birga o'z yechimini kutib turgan bir qancha masalalar qatoriga ishchi kamerasiga tezlatgich o'rnatish masalasini ham kiritish mumkin.

Paxta tozalash sanoati korxonalari uchun jin mashinasining ish unumdorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ish unumdorligiga ta'sir etuvchi bir necha omillarni quyida ko'rib o'tamiz.

Arrali jin ishchi kamerasida hosil bo'luvchi xomashyo valigining zichligi unumdorlikka ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Arrali jin mashinasining yuqorida ko'rsatilgan muammolaridan, ya'ni zichlikning ortishi yoki pasayishi, xomashyo valigi markazining ko'chishi, chigitning ishchi kamera markazida qolib ketishidan kelib chiqib ishchi kamera markaziga tezlatgich o'rnatish taklif etilgan.

Tezlatgichlarni konstruksiyasiga ko'ra 3 turga bo'lish mumkin: qoziqli plankali, diskli, parrakli diskli.

Tezlatgich o'rnatilgach arrali jin mashinasini xomashyo valigi zichligi bixillashgandek bo'lsada ta'minlash jarayonini ham ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Ta'minlovchi valiklar ishchi kamerani paxta bilan ta'minlab bergandan so'ng zichlikni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan xomashyo valigi hosil bo'ladi. Tezlatgich xomashyo valigi bilan bir maromda aylanib jin ish unumdorligi oshishiga hizmat qiladi. Xomashyo valigining zichligidan hosil bo'lgan qarshilikdagi tezlatgich elektromotori orqali avtomatik boshqariluvchi kuchaytirgichga uzatiladi. Natijada ta'minlovchi valiklar harakatni ishchi kammeradagi zichlikni kuchaytirgichga kelgan havo bosimini kuchga aylantirib dastaga uzaytirganligi tufayli oladi va kerakli tezlikdagi ta'minlashni uzatadi.

Arrali jin ta'minlash tizimi uchun yaratilgan yangi qurilma quyidagicha ishlaydi: Ta'minlovchi valiklar aylanishi xomashyo valigi zichligi ortishi yoki kamayishi orqali tezlatgich elektromotoriga tushgan yuklanishga bog'liq bo'ladi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib ishning maqsadi va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning «Arrali jin ishchi kamerada tezlatgichning paxta oqimiga ta'sir qiluvchi kuchlar natijasidagi harakatini nazariy tahlili» deb nomlangan ikkinchi bobida arrali jin ishchi kameraning AB , BC , CD va DA yoyida tezlatgich ta'siridagi paxta oqimi harakati ko'rib chiqilgan (1-rasm).

Ishchi kamerada paxta bo'lakchasiga quyidagi kuchlar ta'sir qilyapti deb qabul qilamiz:

I. Paxta bo'lakchasining og'irlik kuchi

$$P = m_1 \cdot g \quad (1)$$

II. Tezlatgichning paxta bo'lakchasiga ta'sir qiladigan elastik kuchi (zarba kuchi)

$$F_a = k(v_0 t - L_1) + \mu(v_0 t - L_1) = F = (v_0 t - L_1)(k + \mu) \quad (2)$$


bu yerda: k va μ – tezlatgich va paxta bo'lakchasi orasidagi elastiklik va qovushqoqlik koeffitsienti.

III. Paxta bo'lakchasining ishchi kamera sirtidagi hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi

$$F_{uu} = f \left(\frac{m_1 v^2}{r} + m_1 g \sin \varphi_1 \right) \quad (3)$$

bu yerda: $m_1 v^2 / r$ – markazdan qochma kuch; f – ishqalanish koeffitsienti.

Arrali jin ishchi kameradagi $\overset{\sim}{AB}$ – L_1 yoy bo'ylab $L_1 = r \cdot \varphi_1$ harakatlanadigan paxta bo'lakchasini



1-rasm. Paxta bo'lakchasining arrali jin ishchi kameradagi harakati

tashqi kuchlar ta'siridagi holatini tahlil qilamiz. Tezlatgich plankasining paxta bo'lakchasiga ta'siri natijasidagi harakat tenglamasi quyidagicha ifodalanadi

$$m_1 h \ddot{\varphi}_1 = \bar{F}_{\text{xt}} + P - \bar{F}_{\text{uu}} \quad (4)$$

(4) tenglamaga (1), (2) va (3) tenglamalarni qo'yib quyidagi tenglamani hosil qilamiz

$$m_1 r \ddot{\varphi}_1 = k(v_0 t - L_1) + \mu(v_0 t - L_1) + m_1 g - \frac{f m_1 v^2}{r} - \frac{f m_1 g \sin \varphi_1}{r} \quad (5)$$

(5) tenglamada $L_1 = r \cdot \varphi_1$ va $v = \omega \cdot r = \dot{\varphi}_1 \cdot r$ ekanligidan

$$m_1 r \ddot{\varphi}_1 = k(v_0 t - r \varphi_1) + \mu(v_0 t - r \varphi_1) + m_1 g - f m_1 r \dot{\varphi}_1^2 - \frac{f m_1 g \sin \varphi_1}{r} \quad (6)$$


(6) tenglamani quyidagi boshlang'ich $\varphi_1(0) = 0$, $\dot{\varphi}_1(0) = 0$ shartlarda integrallanadi. Ishchi kamera sirtidagi aylana bo'lagi $\varphi_1 \cdot r$ bo'lsa, (6) tenglama $t = t_0$ momentgacha integrallanadi, bu yerda $\varphi_1(t_0) = \varphi$ shartdan aniqlanadi

$$\ddot{\varphi}_1 + f \dot{\varphi}_1^2 = \frac{(k + \mu)(v_0 t - r \omega)}{m_1 r} + \frac{g - f g \sin \varphi_1}{r} \quad (7)$$


(7) tenglama tezlatgich plankalar orasida paxta bo'lakchalarining harakatini ifodalaydi.

Hisob ishlarini quyidagi parametr qiymatlari orqali aniqlaymiz: $\varphi_1 = 90^\circ$, $f = 0,03$, $r = 85 \div 115 \text{ mm}$, $n = 40 \div 60 \text{ ayl/min}$, $v = \pi \cdot n / 30 = 4,2 \div 6,3 \text{ m/s}$.

Hisoblash natijalari paxta bo'lakchalarini arrali jin ishchi kamerasidagi tiqilishlarni bartaraf etish maqsadida φ_1 , φ_2 va φ_3 aylanish burchaklarida φ - grafiklarda keltirilgan (2-3-rasm).




2-rasm. Paxta bo'lakchalarini ishchi kamera AB sirti bo'ylab tezlatgichning aylanish tezligining turli xil 1 – $n_1 = 60 \text{ ayl/min}$, 2 – $n_2 = 50 \text{ ayl/min}$, 3 – $n_3 = 40 \text{ ayl/min}$ qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi




3-rasm. Paxta bo'lakchalarini ishchi kamera AB sirti bo'ylab tezlatgich aylanish tezligi $n_1 = 60 \text{ ayl/min}$ da hamda tezlatgich radiusining turli xil 1 – $r_1 = 85 \text{ mm}$, 2 – $r_2 = 100 \text{ mm}$, 3 – $r_3 = 115 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi

Burchaklarini o'zgarish vaqti bo'yicha tezlatgich plankalar paxta bo'lakchalarini bir paytda surish bilan boshlanib, ishchi kameradagi tiqilishni oldini olish bilan tugallanadi. Paxta bo'lakchalarini harakat qonuniyatlari ma'lum bo'lsa, ulardan chigitni ajratib olish samaradorligini aniqlash mumkin. Tezlatgich plankalarida paxta bo'lakchalarini bir tekisda uzatish chigitni shikastlanishini kamaytiradi va ishchi kameradagi tiqilishini bartaraf qilishni grafiklarda ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, chigitni mexanik shikastlanishi paxta bo'lakchasining zichligiga bog'liqligini inobatga olgan holda $\varepsilon = \rho - \rho_0 / \rho$ har bir paxta bo'lakchasi uchun vaqt bo'yicha o'zgarish grafiklarilari keltirilgan.

Olingan grafiklar tahlilidan shuni aytilish mumkinki, chigitni mexanik shikastlanishini tezlatgich aylanish tezligini kamaytirish va radiusini oshirish hisobiga erishish mumkinligi keltirilgan (4-5-rasm).



4-rasm. Paxta oqimining ishchi kameradagi harakati natijasidagi chigitning mexanik shikastlanishini tezlatgich aylanish tezligining turli xil $n_1 = 60 \text{ ayl/min}$, $2 - n_2 = 50 \text{ ayl/min}$, $3 - n_3 = 40 \text{ ayl/min}$ qiymatlaridagi vaqtga bog'liqlik grafigi



5-rasm. Paxta oqimining ishchi kameradagi harakati natijasidagi chigitning mexanik shikastlanishini tezlatgich radiusining turli xil $1 - r_1 = 85 \text{ mm}$, $2 - r_2 = 100 \text{ mm}$, $3 - r_3 = 115 \text{ mm}$ qiymatlaridagi vaqtga bog'liqlik grafigi

(7) ifoda ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differentsial tenglamani bir jinsli va xususiy yechimlarini hisoblaymiz,

(7) differentsial tenglamani bir jinsli bo'lmagan qismini quyidagi ko'rinishda izlaymiz.

$$\beta_2 = A \sin \varphi + B \cos \varphi$$

Bu ifodani (7) tenglamaga quyib, mos koeffitsientlar oldidagi ifodalarni tenglashtirib, o'zgarimas A va B ni qiymatlarini aniqlaymiz.

$$\dot{B}_2 = A \cos \varphi - B \sin \varphi, \quad \ddot{B}_2 = -A \sin \varphi - B \cos \varphi$$

$$-A \sin \varphi - B \cos \varphi + fA \cos \varphi - fB \sin \varphi = -\frac{fg}{r^2} \sin \varphi_1 + \frac{(k + \mu)(v_0 t - h \varphi_1)}{m_1 r} + \frac{g}{r}$$

$$\begin{cases} -A - fB = -\frac{fg}{r^2} \\ -B + fA = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} -A - fB = -\frac{fg}{r^2} \\ B = fA \end{cases} \Rightarrow -A - f^2A = -\frac{fg}{r^2} \Rightarrow A(1 + f^2) = \frac{fg}{r^2}$$

$$A = \frac{fg}{(1 + f^2)r^2} \quad B = \frac{f^2g}{(1 + f^2)r^2} \quad B_2 = \frac{fg}{(1 + f^2)r^2} \sin \varphi + \frac{f^2g}{(1 + f^2)r^2} \cos \varphi \quad (8)$$

Arrali jin ishchi kameradagi tezlatgichli planka ta'siridagi paxta oqimining AB yoy bo'ylab harakatini ifodalovchi tenglamaning umumiy ko'rinishini hosil qilamiz

$$\beta = \beta_1 + \beta_2 = \frac{1}{f} \ln(\varphi_0 ft + 1) + \frac{fg}{(1 + f^2)r^2} \sin \varphi + \frac{f^2g}{(1 + f^2)r^2} \cos \varphi$$

$t = \tau$ vaqtdan keyin $\beta = \varphi_1$ ga teng bo'ladi.

$$\varphi_1 = \frac{1}{f} \ln(\varphi_0 ft + 1) + \frac{fg}{(1 + f^2)r^2} \sin \varphi + \frac{f^2g}{(1 + f^2)r^2} \cos \varphi + \frac{(k + \mu)(v_0 t - r\varphi)}{m_1 r} + \frac{g}{r} \quad (9)$$

(9) tenglama yoy bo'ylab paxta oqimini harakatini ifodalovchi $AB = L_1$ ekanligidan $L_1 = r \cdot \varphi_1$ ni inobatga olsak, u holda

$$L_1 = \frac{r}{f} \ln(\varphi_0 ft + 1) + \frac{fg}{(1 + f^2)r} \sin \varphi + \frac{f^2g}{(1 + f^2)r} \cos \varphi + \frac{(k + \mu)(v_0 t - r\varphi)}{m_1} \quad (10)$$


(10) tenglamadan o'zgaruvchi parametrlarni ratsional qiymatlaridan foydalanib, Maple dasturi orqali grafiklarda paxta oqimini harakatini tahlil qilamiz. Qolgan BC, CD va DA yoylari bo'yicha ham xuddi shu tartibdagi hisob ishlarini olib boramiz. Olingan grafiklar tahlilidan, chigitni mexanik shikastlanishini kamaytirish asosan ishchi kamerada paxta oqimi bir tekisda uzatilishini ta'minlashdan iboratligini, tezlatgichning burchak tezligini $n_1 = 60 \text{ ayl/min}$ qiymatida va tezlatgich radiusi $r_1 = 85 \text{ mm}$ bo'lganda ratsionat qiymatlar aniqlanmoqda.

Dissertatsiyaning «Tezlatgich diametri va tezligini arrali jin chiquvchi parametrlariga ta'sirini aniqlash bo'yicha tajribalarni o'tkazish» deb nomlangan uchinchi bobida arrali jin ishchi kameraga o'rnatiladigan tezlatgichning diametri va tezligi aniqlangan. Tajribalar NamMTI "Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi" kafedrasi laboratoriyasidagi ДП-30 rusumli laboratoriya stendida olib borildi (6-rasm). Sinovlar Namangan-77 seleksion navli, I-sanoat navli, namligi 7,2% va iflosligi 1,7 % qo'1 terimli paxtada o'tkazildi. Arrali jin tezlatgichining diametri 60, 80 va 100 mm bo'lganda aylana tezliklarini 75, 100 va 125 ayl/min da, bir daqiqa mobaynida ishlatildi. So'ng arrali jinning tola bo'yicha unumdorligi (kg arra/h), xomashyo valigi zichligi (kg/m³), chigit bo'yicha unumdorligi (kg/h), tolaning shtapel

uzunligi (mm), toladagi nuqsonlar va iflos aralashmalar massaviy ulushi (%), chigitning tukdorligi (%) va mexanik shikastlanganligi (%) aniqlandi.

Tashqi diametri 60 mm li tezlatgich diametrini 80 mm li va 100 mm ga o'zgartirish uchun unga, mos ravishda, eni 35 mm va 45 mm li plankalar o'rnatib o'zgartirildi.

Mashinaning unumdorligi bir minutda ajratilgan tola massasini tarozida tortib, 60 min ga ko'paytirildi va 30 ta arraga bo'lib aniqlandi.



6-rasm. Tajriba stendi

1 – ta'minlagich; 2 – tezlatgich chastota o'zgartirgichi; 3 – arrali tsilindr chastota o'zgartirgichi; 4 – tok datchigi; 5 – arrali tsilindr motori; 6 – arrali tsilindr uzatmasi; 7 – chigit bunker; 8 – kolosnikli panjara; 9 – tezlatgich uzatmasi; 10 – boshkarish pulti; 11 – $d_{mez1} = 80$ mm li tezlatgich; 12 – $d_{mez1} = 100$ mm li tezlatgich

Tezlatgichli ishchi kamera ko'ndalang kesim yuza F_{HK60} va F_{HK80} larni mavjud ishchi kamera ko'ndalang kesim yuzasi F_{HK} dan tezlatgich ko'ndalang kesim yuzasining ayirmasidan aniqlandi. Qiymatlar 1-jadvalga kiritilgan.

1-jadval

Turli diametrdagi tezlatgichlar o'rnatilganda ishchi kameraning hajmi

Ko'rsatkichlar	Mavjud kamera	$d_{mez1} = 60$ mm li tezlatgich	$d_{mez1} = 80$ mm li tezlatgich
Tezlatgich ko'ndalang kesim yuzasi F_{mez1} , m ²	-	0,00036514	0,00050514
Ishchi kamera ko'ndalang kesim yuzasi F_{HK} , m ²	0,03477344	0,03440830	0,0342683
Ishchi kameraning hajmi V_{HK} , m ³	0,01860379	0,018408441	0,018333541

Tezlatgich o'rnatilgandan so'ng mavjud jin stendi ishchi kamerasing hajmi sezilarsiz (1,0-1,5% ga) o'zgardi.

Tola va chigitning sifat ko'rsatkichlarini "Chust paxta tozalash" AJ dagi laboratoriyada O'zDst 604-2016 standartlarga muvofiq aniqlandi.

2-jadval

Tezlatgichning turli diametrlaridagi xomashyo valigining tezligi, ayl/min

№	Tezlatgich diametri d_{mezil} , mm		
	60	80	100
1	71	95	Xomashyo valigi aylanmadi
2	65	100	
3	74	97	
O'rtacha	70,0	97,3	

Tezlatgich majburiy tezligini uning elektromotorini chastota o'zgartirgich yordamida rostlab o'zgartirildi. Tezlatgichning mos aylanishiga tok chastotasini quyidagi proportsiyadan hisoblandi va taxometrda tekshirib olindi (2-jadval):


$$i_{ym} = \frac{n_1}{n_4} = \frac{112}{200} = 0,559 \quad (11)$$

Bu yerda: i_{ym} – umumiy uzatishlar soni;

n_1 – birinchi yetaklovchi shkiv tezligi ($n_1 = n_{mezil}$), ayl/min;

n_4 – oxirgi yetaklanuvchi shkiv tezligi ($n_4 = n_{mezil}$), ayl/min.

Tajriba stendida tezlatgich elektromotordan shkivlar orqali tasmali uzatma yordamida harakatlangani uchun, hisoblarda tuzatishlar kiritildi. Tajriba stendi tezlatgichining kinematik sxemasi 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Stendagi tezlatgichning kinematik sxemasi


O'tkazilgan bir omilli tajribalardan kelib chiqib, ta'sir etuvchi omillar tezlatgich diametri (mm) va tezlatgichning aylana tezligi (ayl/min) bilan chiquvchi parametrlar orasida to'g'ri chiziqli regression bog'lanishlar bor ekanligi aniqlandi (8-rasm).

Yuqoridagilardan kelib chiqib tajribalar uchun to'la omilli tajriba (TOT) 2² matritsasi asosida tajribalar o'tkazilib, regression matematik model olamiz (3-jadval).


3-jadval

Kiruvchi omillarning o'zgarish chegaralari


Omillar	X_{\min}	X_{\max}	Δ	X_0
Tezlatgichning diametri d_{mez1} (mm)	60	80	10	70
Tezlatgichning aylanish tezligi n_{mez1} (ayl/min)	75	125	25	100
x_1, x_2	-1	1		0




a)



b)




c)



d)

8-rasm. Tezlatgichning turli omillarida chiquvchi parametrlarning o'zgarish gistogrammalari

Arrali tsilindr va tezlatgich aylanish tezliklarini chastota o'zgartirgichlar yordamida moslandi va taxometrda o'lchash orqali tekshirildi. Tajribada Danfoss VLT 300 chastota o'zgartirgichi va SWMU (200A/0-20 mA, 10 V) tok transformatoridan foydalanildi. Jarayon ostsillogrammasini Danfoss firmasining MST 10 Set up Software dasturi yordamida olindi (9-rasm). Buning uchun chastota o'zgartirgichni standart USB kabel orqali noutbukka ulandi.



4-jadval


Tezlatgich aylana tezligini arrali tsilindr va tezlatgich elektromotori yuklanish tokiga ta'siri

No	Tezlatgichning aylana tezligi n_{mezl} , ayl/min	Tezlatgich motori yuklanish toki $I_{tezl.M.}$, A	Arrali tsilindr motori yuklanish toki $I_{a.II.M.}$, A
Salt yurishda			
1	-	0,19-0,21	13-18
Tezlatgich diametri $d_{mezl}=60$ mm			
2	75	0,20-0,23	15-20
3	100	0,22-0,27	15-20
4	125	0,26-0,30	15-20
Tezlatgich diametri $d_{mezl}=80$ mm			
5	75	0,21-0,24	15-20
6	100	0,25-0,28	15-20
7	125	0,27-0,36	15-20

Jinning salt yurishida arrali tsilindr motorining yuklanish toki 13-18 A oraliqda o'zgardi. Tezlatgich diametri $d_{mezl}=60$ mm va $d_{mezl}=80$ mm bo'lganda uning tezligi ortishi bilan arrali tsilindr motorining yuklanish toki o'zgarishsiz 15-20 A oraliqda bo'ldi. Ya'ni, tezlatgich tezligi va diametrini arrali tsilindr motorining yuklanish tokiga ta'siri sezilarsiz bo'lgani kuzatildi. Buni arrali tsilindr motorining quvvati va tezligi tezlatgich motorining quvvati va tezligidan kattaligi bilan izohlanadi (4-jadval).

Tezlatgich diametri va tezligi ortishi bilan uning motori yuklanish toki $d_{mezl}=60$ mm da 0,20-0,30 A oraliqda, $d_{mezl}=80$ mm da esa 0,21-0,36 A oraliqda o'zgardi (10-rasm).

10-rasm. Tezlatgich diametri va tezligini uning elektromotori yuklanish tokiga ta'siri grafigi




Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalar uchun to'la omilli tajriba (TOT) 2² matritsasi asosida tajribalar o'tkazilib, regression matematik model olamiz.

Ushbu natijalarni Fisher mezonida adekvatlikka tekshiramiz va quyidagi regression tenglamalardan kiruvchi omillarning optimal variantini tanlash uchun grafiklar quramiz (11-rasm).

$$y_1 = 2,63 + 0,15x_1 + 0,31x_2 - 0,07x_1x_2 \quad (12)$$

$$y_2 = 1,36 + 0,1x_1 + 0,04x_2 + 0,15x_1x_2 \quad (13)$$

$$y_3 = 3,4 - 0,28x_1 - 0,49x_2 + 0,13x_1x_2 \quad (14)$$



11-rasm regression tenglamalar orqali olingan optimal qiymat


- tola bo'yicha unumdorlik, kg arra/soat;
- tolaning nuqson va iflosliklar yig'indisi, %;
- chigitning mexanik shikastlanishi, %.

Bunda, x_1 – tezlatgichning diametri “-1” bo'lganda 170 mm; x_2 – tezlatgichning aylanishlar soni “+1” bo'lganda, 60 ayl/min optimal qiymatlar deb xulosa qilishimiz mumkin bo'ladi.

Dissertatsiyaning «Ishlab chiqarish sinovlari va iqtisodiy samara hisobi» deb nomlangan to'rtinchi bobida Xomashyo valigi tezligini aniqlash bo'yicha eksperimentlar, xomashyo valigi aylanish markazini aniqlash bo'yicha

eksperimental tadqiqotlar, arrali jin tezlalgichining statik hisobi, tezlalgich elektromotori yuklanish tokining optimal qiymatini aniqlash, xomashyo valigi zichligini roslash tizimini takomillashtirish maqsadida arrali jin ishchi kamerasiga tezlalgich oʻrnatish kabi nazariy tadqiqotlar oʻtkazilib, ishlab chiqarish sharoitiga tezlalgich oʻrnatish va sinov natijalarini olish uchun «Chust paxta tolasi» AJ Namangan toʻqimachi klasterida ishlab chiqarish sharoitida 5ДП-130 jinida tajribalar oʻtkazildi. Sinovlar Namangan-77 seleksion navli I- va V-nav qoʻl terimi paxtada olib borildi.

Tezlalgich konstruksiyasi (12-rasm) asos 2300 mm lik valdan tashkil topgan. Poʻlat halqaga mahkamlangan xuddi shu uzunlik 50 mm kenglikdagi 4 ta planka bilan jihozlangan.



12-rasm. Tezlalgich oʻrnatilgan arrali jin

- 1 – old fartuk;
- 2 – old toʻsin;
- 3 – kolosnikli panjara;
- 4 – arrali tsilindr;
- 5 – chigit tarogʻi;
- 6 – quyi fartuk;
- 7 – taʼminlovchi valiklar;
- 8 – taʼminlovchi valiklar elektromotori;
- 9 – chastota oʻzgartirgich;
- 10 – tezlalgich;
- 11 – tezlalgich elektromotori;
- 12 – yuklanish toki datchiki

Arrali jin ishchi kamerasida xomashyo valigining zichligi optimal kattalikdan oʻzgarib turadi, bu esa mashina unumdorligini kamaytiradi, tola va chigitning sifat koʻrsatkichlarini pasaytiradi, elektr energiya sarfini oshiradi, ishchi organlar ishlash muddatini kamaytiradi, mashinaning tiqilishiga va hatto elektromotorning ishdan chiqishiga olib keladi. Shu sababli xomashyo valigi zichligini roslash tizimli ishchi kamerasi takomillashgan arrali jinni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tezlalgich elektromotorini yuklanish toki datchiki bilan jihozlanishi, taʼminlovchi valiklar tezligini roslash hamda ishchi kameradagi xomashyo valigi zichligini nazorat qilish imkonini beradi.

Ishchi kamerasi takomillashgan arrali jin (13-rasm) old fartuk 1, old toʻsin 2, unda oʻrnatilgan kolosnikli panjara 3, arrali tsilindr 4, chigit tarogʻi 5, quyi fartuk 6, taʼminlovchi valiklar 7, taʼminlovchi valiklar elektromotori 8, chastota oʻzgartirgich 9, tezlalgich 10, uning elektromotori 11 va yuklanish toki datchiki 12 dan iborat.

Ishchi kamerasi takomillashgan arrali jin quyidagicha ishlaydi. Kelayotgan paxta ishchi kamera ichida arrali tsilindr 4 bilan kontaktga kirib, xomashyo valigini hosil qiladi. Xomashyo valigidan kolosnikli panjara 3 orqali arrali

tsilindr 4 yordamida tola ishchi kamerasidan chiqariladi, bunda chigitni chiqarilishi chigit tarog‘i 5 ning holati bilan rostlanadi.

Ishchi kamerada xomashyo valigi zichligining o‘zgarishida va mos ravishda, tezlatgich 10 elektromotori 11 da yuklanish tokini o‘zgarishida, ta‘minlagich elektromotori 8 chastota o‘zgartirgichi 9 ni boshqaruvchi, yuklanish tokining nazorat datchigi 12 ta‘sirlanadi.

Ta‘minlagich elektromotori 8 ishini avtomatik rostlash qurilmasi ta‘minlagich elektromotori ta‘minlashning tok chastotasini rostlash yo‘li bilan uning tezligini va ishchi kamerasiga uzatilayotgan paxta miqdorini shunday o‘zgartiradiki, xomashyo valigi zichligining o‘rnatilgan kattaligi tiklanadi.

Tajribada Danfoss VLT 300 chastota o‘zgartirgichi va SWMU (20A/0-20 mA, 10 V) tok transformatoridan foydalanildi. USB kabel orqali noutbukga ulangan chastota o‘zgartirgich uchun Danfoss firmasi tomonidan ishlab chiqilgan MST 10 dasturidan foydalanildi.

Yuqorida ko‘rsatilgan tizimlashtirishni ulash uchun datchik simlari tezlatgichning elektromotoriga ulanib, undan olgan signalni chastota o‘zgartirgich orqali ta‘minlovchi valiklar elektromotoriga uzatadi.



13-rasm. Tezlatgich o‘rnatilgan ishchi kameraning umumiy ko‘rinishi
1-arrali tsilindr, 2-tezlatgich

Tajriba natijalari va sifat ko‘rsatkichlari natijalarini 7-jadvalda ko‘rish mumkin. Tajribalar Namangan-77 selektsion navi (I-nav 1-sinf) da o‘tqazildi.

5ДП-130 rusumli arrali jin mashinasiga zichligini rostlash tizimli ishchi kamerasi takomillashgan yangi tajriba nusxasini sinov jarayonida ishlash qobiliyati yuqoriligi aniqlandi. Bu arrali jin unumdorligini 10% ga ortishiga olib keladi.


Tajribalar uch marta takrorlanish bilan amalaga oshirildi. Jadvalda o‘rta arifmetik qiymatlar olingan. Tavsiya qilingan konstruksiyalar orqali jindan chiqqan tolani laboratoriya usulida sifatini aniqlangandan keyingi qiymatlardan jadval tuzilib, tajriba natijalari va sifat ko‘rsatkichlari natijalarini 5-jadvalda ko‘rish mumkin. Jadvaldagi natijalar bo‘yicha yangi taklif etilayotgan ishchi kamera markaziga tezlatgich o‘rnatilgan arrali jin mashinasida unumdorlikni oshgani, toladagi nuqson va iflos aralashmalarining yig‘indisini kamaygani (14-rasm), chigitning shikastlanishi pasaygani aniqlandi. Shu bilan birga tolaning

ko'rsatkichi bir sinfga yaxshilanib, tolaning 50 % "Yaxshi" dan "Oliy" sinfga o'tdi.

5-jadval

Tajriba sinov natijalari

Ko'rsatkichlar	Mavjud 5ДП-130 arrali jin	Taklif etilayotgan 5ДП-130 arrali jin
Jin unumdorligi (o'rtacha), kg/mash.-soat	1600	1760
Arrali jinlashdan so'ng toladagi nuqson va iflos aralashmalar yig'indisi, %	2,3	1,4
Chigitning mexanik shikastlanishi, %	3,9	3,1



14-rasm. Mavjud va takomillashgan jin mashinasida toladagi nuqson va iflosliklar yig'indisining solishtirma gistogrammasi

Tahlil qilinayotgan paxta tozalash zavodi yiliga 4490 tonna tola ishlab chiqaradi. Uning bazaviy va joriy qilinayotgan variantdagi narxi quyidagini tashkil qiladi:

$$C_{m1} = 4490 \cdot 25537500 = 114663375,0 \text{ ming so'm,}$$

$$C_{m2} = 4490 \cdot 25639650 = 115122028,5 \text{ ming so'm.}$$

Olingan hisob ma'lumotlarini iqtisodiy samara hisob formulasiga qo'yib olamiz:

$$\begin{aligned} \mathcal{E} &= [(C_1 + E_n \cdot K_1) - (C_2 + E_n \cdot K_2) \cdot A] + (C_{m2} - C_{m1}) = \\ &= [(200068,01 + 0,15 \cdot 176000) - (187437,05 + 0,15 \cdot 188320) \cdot 1] + \\ &+ (115122028,5 - 114663375,0) = 469436,5 \text{ ming so'm} \end{aligned} \quad (15)$$

Ya'ni, ikki jinli batareyada tezlatgich o'rnatilgan arrali jin mashinasini joriy qilishdan yillik iqtisodiy samara 469 mln 436,5 ming so'mni, yoki bitta jingga yiliga 234 mln 4718,2 ming so'mni, yoki chiqarilayotgan 1 tonna tola 104,552 so'mni tashkil qildi.

XULOSALAR

“Arrali jin ishchi kamerasiga tezlatgich o‘rnatish hisobiga uning samaradorligini oshirish” mavzusida texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olingan:

1. Xomashyo valigining tezlatgich ta’siridagi dinamik holatlarini modellashtirish natijasida tezlatgich plankalari orasida paxta bo‘lakchalarining harakat tenglamasi olindi, ishchi kameraning har xil sohalari uchun tezlatgich diametri va tezligini xomashyo valigi harakatiga ta’siri o‘rganildi.

2. Tezlatgich diametri va tezligining o‘zgarishini mashina ish unumdorligi, tola va chigitning mexanik shikastlanishiga ta’siri nazariy tadqiq qilindi. Tezlatgichning diametri va aylana tezligi oshgan sari uning qamrash burchagini kamayishi aniqlandi.

3. Tezlatgich diametri va tezligidan mashina unumdorligi, toladagi nuqson va iflosliklar yig‘indisi hamda chigitning mexanik shikastlanishi kabi sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liqlik regression tenglamalari tahlilidan arrali jin stendi uchun tezlatgichning diametri 60 mm va aylana tezligi 125 ayl/min ni tashkil qildi.

4. Jinlash mashinalari tezlatgichlari bo‘yicha mavjud tadqiqotlarning tahlili asosida texnologik jarayonlarni boshqarishning yangi qurilmalari va tizimlaridan foydalanib, xomashyo valigi zichligi o‘zgarishi bilan ta’minlovchi valiklar tezligini rostdash jarayonini takomillashtirishning ratsional yo‘nalishi tanlandi.

5. Tolani chigitdan ajratish jarayonlari matematik modellari tahlili asosida paxta va uning mahsulotlari tabiiy xususiyatlari saqlanishini ta’minlovchi, tezlatgich motori yuklanish toki orqali ta’minlovchi valiklar tezligini rostdash orqali xomashyo valigi zichligini stabillashtirish, avtomatik nazorat qilish va boshqarish tizimi hamda vositalari ishlab chiqildi.

6. Ishchi kamerasiga tezlatgich o‘rnatilgan arrali jinni ishlab chiqarishga joriy qilinishi I-nav paxtani ishlashda tola bo‘yicha jinlash unumdorligini o‘rtacha 10% ga oshirish, paxta tolasidagi nuqson va iflos aralashmalar massaviy ulushini 0,9 % ga, chigitning mexanik shikastlanishini 0,8 % ga kamaytirish imkonini berdi.

7. Ishchi kamerasiga tezlatgich o‘rnatilgan arrali jinni joriy qilishning iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarilayotgan har 1 tonna tolaga 104,552 ming so‘mli aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/03.10.2023.Т.174.01 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**НАМАНГАНСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

КЕНЖАЕВА МУАЗЗАМ ИСРОИЛЖОН КИЗИ

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПИЛЬНОГО ДЖИНА ЗА СЧЕТ
УСТАНОВКИ УСКОРИТЕЛЯ В ЕГО РАБОЧЕЙ КАМЕРЕ**

05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2024

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за №B2023.4.PhD/T1840.

Диссертация выполнена в Наманганском институте текстильной промышленности.

Автореферат диссертации доступен на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Учёного совета Наманганского института текстильного промышленности (www.ntsuz) и в сети «ZiyoNet». Размещен информационно-образовательный портал (www.ziynetuz).

Научный руководитель:	Умаров Акмал Акпаралиевич Доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	Юлдашев Жамшид Кабаралиевич Доктор технических наук, доцент Саттаров Нурилло Музаффар угли Доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент
Ведущая организация:	Андижанский машиностроительный институт

Защита диссертации состоится «24» августа 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/04.10.2023.T.174.01 при Наманганском институте текстильной промышленности по адресу: г. Наманган, ул. ЮКАД, 17, тел. (998) 55-251-43-04, (998) 55-255-43-04. e-mail: info@ntsuz, административный корпус Наманганского института текстильной промышленности, 1 этаж, зал заседаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганском институте текстильной промышленности (зарегистрирована №23). (Адрес: г. Наманган, ул. ЮКАД, 17, тел. (998) 55-251-43-04, (998) 55-255-43-04).

Автореферат диссертации разослан «13» августа 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 13 от «12» апреля 2024 года).



К.М.Холиков

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней доктор технических наук, профессор

Х.Т.Бобожанов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Ж.К.Юлдашев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире непрерывно растет потребность к одеждам из хлопкового волокна и такая ситуация приводит к увеличению спроса на хлопковое волокно и его потребления на мировом рынке. В основном 38 стран мира производят 95% общего количества хлопка.³ Индия, Китай, США, Пакистан, Турция и Бразилия, являющиеся мировыми лидерами по производству хлопкового волокна, для сохранения своего места и престижа на потребительском рынке производителями волокна приоритетное значение придается улучшению потребительские характеристики хлопкового волокна. При этом, особое внимание производителей уделяется также, к обеспечению сохранения первоначальных качественных и количественных показателей хлопкового волокна и семени посредством совершенствования техники и технологии отделения волокна от семени.

В мире особое внимание уделяют на вопросы разработки технологии первичной обработки хлопка, в частности, на совершенствование процесса, техники и технологии отделения хлопкового волокна от семян (джинирования), в том числе, на разработку научных основ повышения эффективности процесса джинирования, разработку наукоемких, автоматизированных, а также, ресурсосберегающих техники и технологий, повышение качества и снижения ее себестоимости хлопковой продукции путем широкого внедрения в промышленность новейших достижений науки и техники. В этом направлении, считаются в том числе, неотложными задачами развития хлопковой промышленности, вопросы сохранения исходных показателей качества волокна и семян и управления качеством продукции в процессе отделения хлопкового волокна от семени, разработке простых, компактных конструкций устройств с меньшими затратами материала и энергии.

В нашей республике особое внимание уделяется на развитие производства и обеспечению конкурентоспособности готовых текстильных изделий и продукции легкой промышленности с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки хлопка-сырца, повышению качества и количества выпускаемой в хлопковой промышленности продукции для внутреннего рынка на основе модернизации производства. В последние годы в нашей стране реализуются комплексные меры по развитию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, поддержке инвестиционной и экспортной деятельности предприятий отрасли. В «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в том числе, поставлены задачи «...интенсивное развитие национальной экономики с обеспечением высоких темпов роста, обеспечение увеличения объемов производства

³ <https://www.tendata.com/blogs/export/4712.html>

продукции текстильной промышленности в 2 раза»⁴. Для решения этих задач важным считается вопрос повышения эффективности процесса отделения волокон от семян хлопка, за счет совершенствования рабочих органов волокноотделительного оборудования.

Настоящее диссертационное исследование служит в определенной степени реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №ПФ-60 «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2017 г. № ПП-3408 «О мерах по коренному совершенствованию системы управления хлопковой отраслью», в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 марта 2018 г. № 253 «О дополнительных мерах по организации деятельности хлопко-текстильных производств и кластеров» и других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Диссертационное исследование соответствует приоритетному направлению по развитию науки и техники республики II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

